

---

## Fidoyilik va yuksak azmu shijoat namunasi

Qo'li qadoq dehqon uchun erta bahorda ekin yeri tobiga yetganida baraka urug'ini qadab, kunni tunga ulab, dalasidan nari ketmay niholini parvarishlab, barakali hosil yetishtirishi bir tomonu, ayni hosili pishib-etilib, tayyor bo'lganida uni nest-nobud qilmay yig'ishtirib olish alohida sa'y-harakat va hamjihatlikni taqozo etadi.

Shu yilki yog'ingarchilik, xullas, tabiat injiqliklariga qaramay mirishkor dehqonlarimiz bo'sh kelishmadi. Shu kecha-kunduzda paxtakor-mirishkorlar uchun ham navbatdagi sinov — "g'alvirni suvdan ko'taradigan" palla - "oq oltin" yig'im-terimi davom etmoqda.

"Bugun barcha hududda hamjihatlik va katta kuch-g'ayrat bilan boshlangan yig'im-terim mavsumida dala mehnatkashlariga yetarli shart-sharoit yaratish, ular xizmatini munosib rag'batlantirish, terim pullarini vaqtida berilishini ta'minlash, qolaversa, ularning kunlik issiq ovqati va boshqa zaruratlariga dala boshida e'tibor ko'rsatish muhim ahamiyatga ega, yuqori mehnat unumdorligining kafolati bo'lib xizmat qiladi", - deydi tuman hokimi.

2022-09-21 13:12:07